

OZOD SHARAFIDDINOV

Muratova Madina Otabek qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 31-24 guruh talabasi.

S.S.Abdugahhorov

Ilmiy rahbar.

Elektron pochta: Saidbokhir@mail.ru<https://doi.org/10.5281/zenodo.17215440>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi, adabiyotshunos va tanqidchi Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Uning o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tanqidchilik maktabining rivojida tutgan o'rni hamda mustaqillik davrida milliy adabiy tafakkurni shakllantirishdagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, Sharafiddinovning yosh avlodni tarbiyalashdagi pedagogik qarashlari va ma'naviy-ma'rifiy merosi ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ozod Sharafiddinov, adabiyotshunoslik, tanqidchilik, o'zbek adabiyoti, milliy tafakkur, ijodiy meros, ma'naviyat, mustaqillik davri adabiyoti.

Abstract. This article analyzes the life and scientific-literary heritage of Ozod Sharafiddinov, a prominent Uzbek literary critic and publicist. His contribution to the development of Uzbek literary studies, the establishment of critical traditions, and the shaping of national literary thought during the independence period are thoroughly examined. Furthermore, Sharafiddinov's pedagogical views, his role in nurturing the younger generation, and his moral-educational legacy are highlighted from a scholarly perspective.

Keywords: Ozod Sharafiddinov, literary criticism, Uzbek literature, national consciousness, independence period, literary heritage, spirituality, pedagogy.

XX asr o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixida o'zining beqiyos xizmati bilan chuqur iz qoldirgan yirik adabiyotshunos va tanqidchi Ozod Sharafiddinov milliy adabiy tafakkurni rivojlantirishda alohida o'rin egallaydi. U o'zbek adabiy tanqidchiligi maktabini shakllantirish, milliy adabiyotning nazariy va amaliy masalalarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etish hamda adabiy jarayonni jahon adabiyoti kontekstida baholash borasida samarali faoliyat olib borgan ziyolilardan biridir. Sharafiddinovning ilmiy merosi, bir tomondan, sovet davri mafkuraviy cheklovlari doirasida adabiy jarayonni tahlil qilish tajribasini, ikkinchi tomondan, mustaqillik davrida milliy ma'naviyat va istiqloq g'oyalarini adabiy tanqid bilan uyg'unlashtirish yo'lidagi dadil qadamlarni mujassam etadi.¹

Adabiyotshunos olimning asarlarida o'zbek adabiy tanqidchiligida ilmiylik va badiiy-estetik yondashuv uyg'unlashgani ko'zga tashlanadi. U nafaqat adabiy tanqidchi, balki millat ziyolisi sifatida o'zbek xalqi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Sharafiddinovning yosh avlodni vatanparvarlik, milliy iftixor va ijodiy erkinlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.²

Maqolada Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy bosqichlari, uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi, milliy adabiy tanqidchilikning shakllanishidagi o'rni, shuningdek, mustaqillik davri o'zbek adabiyotining rivojlanishiga qo'shgan nazariy va amaliy hissasi ilmiy tahlil qilinadi.

¹ Sharafiddinov, O. Tanqid – hayot darsligi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B. 45.

² Sharafiddinov, O. Badiiy tafakkur va zamon. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 62.

Tadqiqot davomida olimning merosini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik fani uchun, balki milliy ma'naviyatni yuksaltirishda ham katta ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanadi.³

Muhokama va natijalar: Ozod Sharafiddinovning adabiy-estetik qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning ijodi o'zbek tanqidchiligida yangi bosqichni boshlab bergan, milliy adabiyotning nazariy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilgan muhim merosdir. Sharafiddinovning adabiy tanqidchi sifatidagi asosiy xususiyati, avvalo, ilmiylik va badiiy-estetik mezonlarni uyg'unlashtira olganidadir. U badiiy asarni baholashda nafaqat uning ideologik yoki mafkuraviy yo'nalishiga, balki san'atkorlik darajasi, obrazlar tizimi, estetik ta'sir kuchi va milliy ruhni ifodalash darajasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Bu jihati bilan u o'z davrida tanqidchilik faoliyatini biryozlama yondashuvlardan xalos etishga harakat qildi.

Sharafiddinovning qarashlarida o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan uzviy bog'liqligi masalasi ham muhim o'rin tutadi. U ko'plab maqola va kitoblarida G'arb va Sharq adabiy tajribalarini qiyosiy o'rganib, o'zbek adabiy jarayonini umumjahon madaniy kontekstdan ajratib bo'lmashligini ta'kidladi. Bu yondashuv o'zbek adabiyotshunosligi uchun katta nazariy ahamiyatga ega bo'lib, milliy adabiyotni tor hududiy doiradan chiqarib, uni global adabiy jarayonning muhim bir bo'lagi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Sharafiddinov ijodining yana bir muhim jihati – uning mustaqillik davridagi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Sovet mafkurasi bosimidan xoli bo'lgan davrda u milliy adabiyotni xalq ruhiyatining, milliy tafakkurning, ma'naviy uyg'unishning bevosita ifodachisi sifatida tahlil qildi. Ayniqsa, istiqlol g'oyalari, erkin fikrlash, milliy qadriyatlarni ulug'lash, yosh avlodni mustaqil tafakkur ruhida tarbiyalash masalalarida Sharafiddinovning maqolalari va chiqishlari alohida e'tiborga molikdir. U adabiy tanqidni faqatgina asarlar tahlili bilan chegaralab qo'ymay, balki uni kengroq ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida ko'rdi.⁴

Muhokama jarayonida yana bir asosiy masalani ta'kidlash lozim: Sharafiddinovning adabiy-tanqidiy merosi nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Uning yozgan asarlari va nutqlari o'quvchilarni milliy g'urur, ma'naviy poklik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, u adabiyotshunoslikda erkin fikrlash, mustaqil tahlil qilish, yangicha qarashlarni ilgari surish kabi tamoyillarni shakllantirib, keyingi avlod adabiyotshunoslari uchun mustahkam asos yaratib berdi.⁵

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ozod Sharafiddinovning merosini o'rganish bugungi kun adabiyotshunoslik fanida bir necha muhim yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin:⁶

1. Adabiy tanqid metodologiyasini boyitish. Sharafiddinovning qiyosiy tahlilga asoslangan yondashuvlari zamonaviy adabiyotshunoslikda qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy asoslarni beradi.
2. Milliy adabiyotning global kontekstdagi o'rnini belgilash. Uning ilmiy qarashlari o'zbek adabiyotini jahon adabiy jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rsatishda dolzarbdir.
3. Ma'naviy-ma'rifiy merosni rivojlantirish. Sharafiddinovning tarbiyaviy qarashlari bugungi ta'lim-tarbiya tizimida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

³. Sharafiddinov, O. Istiqlol va adabiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 17.

⁴ Qarang: Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 9.

⁵. Jo'rayev, T. "Ozod Sharafiddinovning tanqidiy merosi va adabiyotshunoslikdagi o'rnini". O'zbekiston adabiyoti va san'ati, №23, 2012. – B. 4.

⁶ Qodirov, A. "Ozod Sharafiddinov va mustaqillik davri adabiy tanqidchiligi". Adabiyotshunoslik jurnali, 2018, №2(4). – B. 47.

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinovning adabiyotshunoslik va tanqidchilikdagi faoliyati nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham ilmiy va ma'naviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning asarlari, ilmiy qarashlari va ma'naviy merosi o'zbek adabiyotshunosligining taraqqiyotida yangi izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu boisdan, Sharafiddinov merosini chuqur va tizimli o'rganish kelajakda adabiyotshunoslik fanining yanada rivojlanishi, yosh avlodning milliy g'oya va ma'naviyat ruhida tarbiyalanishi uchun muhim omil bo'lib qolaveradi.⁷

Ozod Sharafiddinov – adabiyot va tanqidchilik fidoyisi

O'zbek adabiy muhitida o'zining serqirra faoliyati bilan alohida o'rin tutgan Ozod Sharafiddinov xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, adabiyot va ilm sohalarida yangi fikrlar targ'ibotchisi sifatida katta hissa qo'shgan ijodkordir. U adabiy tanqidchi, tarjimon, notiq va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritib, o'zining ilk taqriz va maqolalaridanoq zukkoligi va bilimdonligini namoyon etdi.

Sharafiddinov adabiy tanqid nazariyasini mukammal o'zlashtirgan, janr va shakllarni teran farqlay olgan munaqqid edi. Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek, u adabiyot ilmiga chin ixlos bilan kirib kelgan va umrining oxirigacha shu samimiy fazilatni saqlab qolgan. Munaqqidning "Lirika haqida mulohazalar" maqolasi (1950-yillar ikkinchi yarmi) uni keng adabiy jamoatchilikka tanitgan bo'lsa, nomzodlik dissertatsiyasi ("Hozirgi o'zbek sovet poemalari", 1955) o'zbek she'riyati taraqqiyotini tahlil qilishdagi ilmiy qobiliyatini yaqqol ko'rsatib berdi.

Keyinchalik u "Zamon, qalb, poeziya" (1962), "Adabiy etyudlar" (1968), "Bayroqdorlar" (1974), "Mahorat saboqlari" (1975), "Birinchi mo'jiza" (1979), "Hayot bilan hamnafas" (1983), "Ijodni anglash baxti" (2004), "Domlalar" (2009) kabi qator asarlari orqali adabiy jarayonning dolzarb muammolarini tahlil qildi.

Sharafiddinov ijodida poeziya muammolari, o'zbek she'riyatining holati va o'ziga xos jihatlari markaziy o'rinda turadi. "Talant – xalq mulki" (1979), "Adabiyot – hayot darsligi" (1980), "Go'zallik izlab" kabi asarlari bunga yorqin misoldir. U Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov va boshqa ko'plab ijodkorlarning adabiy portretlarini yaratib, ularning asarlari hamda badiiy olamini tahlil qilgan. Jumladan, Oybek lirikasi haqida "uning qalb tebranishlarini eng nozik qatlamlarigacha ifodalay olgan" deb ta'riflagan bo'lsa, G'afur G'ulom ijodini xalqchilligi va ko'p qirraliligi bilan alohida baholagan.

Sharafiddinovning Cho'lpon haqidagi tadqiqotlari esa o'zbek adabiyotshunosligida alohida ahamiyat kasb etadi. "Cho'lpon" nomli kitobi shoir merosiga bag'ishlangan ilk ilmiy-tahliliy ish sifatida o'z vaqtida katta voqea bo'lgan. U Cho'lponni anglashni "so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini anglash, Vatanni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, uning yuragi bilan sevish" deb izohlagan.

Munaqqidning tanqidchilik haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. "Tanqidchilik kasbi haqida" maqolasida u tanqidchidan mas'uliyat, halollik va san'atkorlik talab etilishini uqtiradi.

⁷ Rasulov, B. O'zbek adabiyotida tanqidchilik maktabining shakllanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – B. 134.

Uning fikricha, tanqidchi asarning nuqsonini ko'rsatishdan tashqari, undagi yashirin go'zallikni ochib berishi lozim. Shu sababdan ham u "tanqid – bu badiiy asardagi yashirin go'zallikni kashf etish san'ati" deb ta'rif beradi.

Sharafiddinovning ijtimoiy hayotga oid qarashlari ham dadil edi. "E'tiqodimni nega o'zgartirdim" maqolasida partiya faoliyatida duch kelgan nohaqlik va yolg'onlarni ochiq tanqid qiladi. U o'zining va onasining partiyadagi faoliyatidan misollar keltirib, haqiqatparvarlik va adolatga intilishdagi qat'iyatini namoyon etgan.

Munaqqidning "She'r ko'p, ammo sho'rchi?" maqolasi esa bugungi she'riyatdagi o'rtamiyonachilik muammosini ko'tarib chiqadi. Unga ko'ra, haqiqiy shoir she'rni qalban his qilishi, vijdon va e'tiqod bilan ijod qilishi shart. "Shoirlik – bu mas'uliyat, uyg'oqlik va bezovtalikdir" degan xulosasi tanqidchining badiiy-estetik qarashlarini ifodalaydi.

Sharafiddinov o'zbek tanqidchiligini nafaqat asarlar, balki tarjimalar orqali ham boyitdi.

U L.Tolstoyning "Iqromoma"si, P.Koelo asarlari, A.Sevela qissalarini o'zbek kitobxoniga yetkazib, xalqimizning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi. Tarjima uning uchun oddiy kasb emas, balki ma'naviy missiya edi.

Adabiyotshunos A.Rasulov uni "o'zbek tanqidchilik qozonida qaynagan munaqqid" sifatida ta'riflasa, Matyoqub Qo'shjonov Sharafiddinovning cho'rtkesarligi va haqiqatgo'yligini uning asosiy fazilatlarini deb baholaydi. Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov o'z hayotini va butun iste'dodini ilm, adabiyot va xalq xizmatiga bag'ishlagan, adabiy tanqidchiligidan tarixida o'chmas iz qoldirgan siymolardan biridir.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yirik adabiyotshunos, ziyoli va ma'naviyat fidoyisi sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodiy merosi nafaqat adabiy jarayonni tahlil qilishda, balki milliy tafakkur va ma'naviyatni yuksaltirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sharafiddinovning asarlarida ilmiylik, estetik yondashuv va ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyat uyg'unlashib, o'zbek adabiy tanqidchiligiga yangicha mazmun olib kirdi.

Sharafiddinovning faoliyati uch asosiy yo'nalishda alohida qadrlanadi:

1. Adabiyotshunoslik va tanqidchilikdagi ilmiy izlanishlari. U adabiy asarlarni chuqur tahlil qilish, ularning estetik va g'oyaviy qiymatini baholashda mustaqil metodologiya yaratdi.

2. Milliy adabiyotning jahon adabiy jarayoni bilan bog'liqligi. Olimning qarashlari o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosdagi o'rnini belgilashda muhim nazariy asos bo'ldi.

3. Ma'naviy-ma'rifiy merosi. Sharafiddinov yosh avlodni vatanparvarlik, erkin fikrlash va milliy iftixor ruhida tarbiyalashni o'zining asosiy burchi deb bildi.

Uning ijodiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, adabiyotshunoslik fani uchun yangi ilmiy izlanishlarga, milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantirish uchun esa amaliy dastur sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli Ozod Sharafiddinov merosini yanada chuqur o'rganish, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga keng joriy etish dolzarb ilmiy va ijtimoiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sharafiddinov, O. (1980). Tanqid – hayot darsligi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Sharafiddinov, O. (1990). Badiiy tafakkur va zamon. Toshkent: Fan.
3. Sharafiddinov, O. (2000). Istiqol va adabiyot. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.

5. Jo'rayev, T. (2012). Ozod Sharafiddinovning tanqidiy merosi va adabiyotshunoslikdagi o'rnini. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, №23.
6. Qodirov, A. (2018). Ozod Sharafiddinov va mustaqillik davri adabiy tanqidchiligi. Adabiyotshunoslik jurnali, 2(4), 45–53.
7. Rasulov, B. (2020). O'zbek adabiyotida tanqidchilik maktabining shakllanishi. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2005). Ozod Sharafiddinov. Toshkent: O'zME nashriyoti.